

«MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODIYOTINI TATBIQ
ETISH USULLARI»

Axadova Soxiba Ulug'bekovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani. 53 maktab Musiqafanio'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqamadaniyatidarslarida o'zbek xalqining musiqaijodiyotini tatbiq etish, o'zbek xalq musiqaijodiorqalio'quvchi-yoshlarni ma'naviy ma'rifiy didini shakllantirish hamda o'zbek musiqatarixini o'rgatib borish o'qituvchidan mohirlik, uddaburoni kimga qurmusiqiy bilimga egabo'lishini talab etilishi haqida so'zyuritiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, marosim, marosim qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodi, laparlar, mehnat qo'shiqlari, milliy qadriyatlar, sozanda, honanda, ijrochi.*

O'zbek xalq musiqaijodiyotining tarixiy taraqqiyotini o'quvchilarga singdirish, musiqa olamiga va uning kelib chiqish tarixini o'rgatish kabi masalalar belgilangan. Musiqamadaniyatidarslarida musiqa tarixini o'rganish kabi professional qiyinchiliklar va maktab o'quvchilarining ushbu tarixga bo'lgan munosabatlari namoyon etilgan. Yoshlar barcha jamiyatlarda bo'lganidajagi ko'p jixatdan yoshlarmiz tarbiyasigak bizning mamlakatimizda ham aholining eng xatdan yoshlarmiz tarbiyasiga arakatchang, jismoniy baquvvat, g'ayratli va ilm-fanga moylligi va ishtiyoqi baland qismidir. Shuning uchun ham farzandlarimiz kamolga yelajagi ko'p jihatdan yoshlarmiz tarbiyasigatishi nihoyat dolzarb va ayni mahalda mashaqqatli, selajagi ko'p jixatdan yoshlarmiz tarbiyasigarmelajagi ko'p jixatdan yoshlarmiz tarbiyasigahnat hamda ko'p qirrali jarayondir. O'quvchilar qalbini odobahloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi – o'qituvchi chuqur bilim, yuksak mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i zarur. O'zbek xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotini o'quvchilarga o'rgatishning mazmun- mohiyati va ahamiyatidir.

Har bir xalq turmishida din, yil fasllari, oila sharoiti bilan bog'liq tarzdag'i

ko'plab rasm-rusmlar, ma'rosimlar uchraydi. O'zbek milliy qadriyatlari bo'lgan xalq ma'rosimlari madaniyatini qavmlar orasidagi aloqalarni o'rganish bebahs manbadir. Misol uchun, bola tug'ilishi va tarbiya topishi davridagi to'ylar bilan bog'liq marosim, bu shunchaki bir harakat yoki tantana emas, balki turli xil an'analar bilan bog'liq boy xalq madaniyati. Bu tomosholarda harakat, musiqani o'yin, raqs, dramatik ko'rinishlari uyg'unlashib ketadiki, ko'p hollarda ularning qay biri yetakchi, qay biri ikkinchi darajali ekanligini aniqlash xam mushkil. O'zbek xalqining madaniy an'nalarida asosan jamoaviy va oilaviy marosimlar mavjud. Diniy marosim qo'shiq va kuylari ikki turga bo'linadi marsiya va qo'shiqlar. Ularning xar-biri diniy-sehrlovchi, xabar berish, aloqa qilish, ya'ni zikrlarni o'z ichiga oladi. Ular manfa'tdorlik tantanavorlik, ruhiyestetik jihatday aniq bir vazifani bajaradi. Marosim musiqa janri tarkibini aniqlashda marosimning mohiyatini nazarda tutish lozim, chunki u musiqa ijodida real tarzda namoyon bo'ladi.

El-yurt orasida dong taratgan sozandalar, o'z kasbining piru- ustozlari bizda doim hurmat va izzatda bo'lib kelgan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Amir Umarxon, Feruz kabi yirik davlat arboblari, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinodek olimu fuzalolar, Imom G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Qubro, Paxlavlom Mahmud, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy, Boborahim Mashrabga o'xshagan din peshvolari so'z san'atiga hech qachon bid'at deb qaramaganlar, aksincha, uni inson qalbiga chuqur ta'sir o'tkazuvchi omil va oliy ne'mat deb bilganlar.

Imom G'azzoliy aytadurlarkim: - "Xudoyi Taollo odamzod diliga shunday bir sir ato etganki, xuddi o't chaqinini temir va toshda yashirganidek. Agar temir toshga urilsa o'tning siri oshkora bo'lgay va atrofga yoyilgay. Xuddi shuningdek, samoxushmavzun(mutanosib)ovozdil gavharini harakatga keltiradi va kishining ixtiyorisiz uning qalbida ajib bir tuyg'u paydo qiladi. Buning sababi inson vujudining gavhari "Olami arvoh" deb ataladigan Oliy olamga aloqadorligidan kelib chiqadi. Oliy olam— husn va jamol olami. Aslida, husn va jamol bir-biriga munosib. Har narsaki mutanosib ersa, Oliy olam jamolining tajalliysi bo'lgay. Zero, bu olamdagi husn va jamol mutanosibliigi, u olam husn va jamolining samarasidir. Demak, xushmavzun ovoz u olam ajoyibotidan paydo bo'lgan o'xshash va mutanosib narsa. Shu sababdan u dilda ogohlik paydo qilib, harakat va shavqni yuzaga chiqaradi". Islom dinining qudratli tayanchlaridan bo'lgan Buxoroi Sharifda axloqiy nuqtai nazardan musiqachi, sozandalik kasbiga ma'lum ehtiyotkorlik bilan yondashilgan hamda sunna ahlining oliy tabaqalari musiqasini kasb qilishni o'ziga uncha munosib ko'rmagan. Shu sababli bu ishga ko'proq quyi tabaqalar va g'ayridinlarni jalb etishga intilganlar. Masalaga ma'lum aniqlik kiritish uchun Imom Buxoriy hadislariga murojaat etaylik:

Oisha onamiz rivoyat qiladilar: "Huzurimga (otam) Abu Bakr kirdilar. Oldimda ikkita ansoriy cho'ri qiz ansoriylarning "Buos" kuniga bag'ishlangan baytlarini ashula qilib aytayotgan erdi. Lekin, ikkala cho'ri qiz ham ashulachi ermas edi. Shunda Abu Bakr Siddiq: "Shaytonning surnaylari (kelib - kelib) Rasululloh sallollohu alayhi va sallamning uylarida chaling'aydirmi?" — deb koyidilar. Bu voqea hayit kuni bo'lgan erdi. O'shanda Rasululloh sallollohu alayhi va sallam: "Ey Abu Bakr, har qavmning o'z bayrami bordir, bu kun bizning bayramimiz" - dedilar").

Demak, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga o'zbek xalqida o'g'zaki an'anadagi qo'shiq va kuylarning kelib chiqishini ushbu hadislar o'rqali o'qituvchi yetkazib berishi mumkin. Hadislar mazmunidan shunday xulosa chiqarsa bo'ladi: musulmonlarga, ayniqsa, bayram kunlari, qo'shiq tinglab, zavq olish man etilmaydi. Vaholanki, fiqhshunoslar zamon (vaqt), makon (o'rin) va ixvon (davra) sharoitlariga qarab vojib(savob), halol, muboh va harom samo'lar to'g'risida fikr yuritganlar. Shunga ko'ra ayrim , tariqatlarda, masalan Yassaviya, Kubroviya va Mavlaviya zikrlarida raqsu-samo'ga katta e'tibor berilgan. Umuman olganda, jahriy zikrlarning mumtoz kuy va raqslar bilan bog'liq tomonlari kuylangan.

Zikr etilgan hadislarda yana bir muhim qiyosiy ishora bor. U ham bo'lsa qo'shiq aytuvchilar - "ansoriy" ayollari ekanligi. Ansoriylar - endigina islomni qabul qilgan qabilalar. Ularning doira chalishi, qo'shiq aytishi, raqsga tushishi islomdan oldingi odatlaridan nishona. Turli qavmlarning avvaldan kelayotgan odatlarini pisand qilishlik va ularga hurmat bilan qarash ham sunnatdir. Ya'ni pedagog o'quvchilarga qaysi millat bo'lishidan qat'iy nazar, ularning urf-odatlariga hurmat bilan qarash kerakligini aytib o'tadi. Bunday jarayonda o'quvchilarda diniy marosimlarga bo'lgan munosabatlar, qardosh xalq musiqasiga bo'lgan hurmat kabi fazilatlarini shakillanib boradi. O'quvchilar o'zlashtiriladigan bilimlar xosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida o'tkazilgan dars jarayonlari o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, musiqiy materialni zamon va makonda taxlil qilish, musiqiy ijrolarning farq qiluvchi xususiyatlariga qarab taqqoslash, musiqiy faktlar o'rtasidagi mavjud sabab va oqibatli aloqalarini aniqlash kabi ko'nikma va malakalarini xosil qilishga ko'maklashadi.

Farg'ona vodiysidagina emas, balki butun O'rta Osiyoda tanilgan Xudoyberdi hofiz (Zebo pari)ning shogirdi Madumar hofiz katta ashula ijrosi bo'yicha taniqli shaxs, deydilar ustozlar. Yana mashhur To'ychi hofiz ham bu kishining shogirdlari bo'lgan ekan. Eshonlar rahbarlik qilgan xonaqohlarda hofizlar asosan cholg'usiz Hofiz, Navoiy, Mashrab, Bedil kabi ulug' shoirlar baytini kuylaganlar. Demak, katta ashulaning soz jo'rligisiz aytilishida ham tasavvufiy hikmat yashiringan deyishimiz mumkin.

Katta ashula tuzilishi quyidagicha. Avvalo aytiladigan bayt albatta aruzning muayyan bir bahr vaznida bo'lmog'i lozim. Kuylayotgan hofiz aruz ilmidan, uning qonun-qoidalaridan habardor bo'lishi shart. Agar bayt hijolarining cho'zimini ma'lum qoida asosida taqsimlanmasa, bundan g'olizlik va sakta-qoqinish kelib chiqib, ijroga putur yetadi.

Ustoz ijodkorlar tomonidan yaratilgan ko'pdan-ko'p katta ashula namunalari butun boshli kuylar bilan birgalikda, maqom silsilasida ham keng foydalanilganligini ko'rsatadi. Misol uchun "Yovvoyi CHorgoh" deb nomlanadigan, Haziniy g'azali bilan aytiladigan katta ashulada, Farg'ona maqom yo'llaridan bo'lgan "CHorgoh" asosidagi ajoyib bir mustaqil yo'l yaratilgan. YOki bo'lmasa "Yovvoyi Ushshoq" (Patnisaki Ushshoq ham deyiladi). Ushshoq namudining turli ko'rinishlari zamin bo'lib, baland, tik avjli, ammo ta'siri o'zgacha bo'lgan belgili kuy namunasi yaratilgan.

Iloxiy aytimlari Xorazmda keng tarqalgan turi suvoriylar bo'lib ajdodlardan meros qolgan betakror ma'naviy xazina xisoblanadi. So'z, soz va ovoz mushtarakligidan taralgan suvoriylar murakkab she'riy-musiqiy majmua. Xorazm suvoriy aytimlari xalqimizning ardoqli va xaqiqiy durdona asarlari xisoblanadi. Suvora va suvoriy so'zlarni lug'aviy ma'nosi bir negizdan kelib chiqsada, istilohda iloxiyaytimdagi suvoriy boshqa va maqom tarkibidagi suvora boshqa. Suvoriylar, mustakil bir iloxiy aytimlar turkumi. Suvora esa dunyoviy maqom yo'llarining tarkibiy qismlaridan biri.

O'zbek xalqining yana bir og'zaki ijodidagi yil fasllari bilan bog'liq marosim qo'shiqlarida qanday voqeyaga mo'ljallangani, yilning ma'lum bir kunlari yoki bironbir munosabat bilan ijro etilgan. Masalan er xaydash, urug' qadash, bahorning kelishi, va

xakoza. Marosim kuylarida soʻz va harakatlarning mustahkam aloqasi u yoki bu marosim harakatlariga mos mazmunini bildiradi, shu bilan birgalikda ularning tuzilmasini, musiqaviy-poetik xususiyatlarini, ijro uslubini, ijrochilar tarkibini belgilab beradi. Marosim musiqasining marosimdagi oʻrni bir xil emas. Birinchidan marosimlarning vazifasini bajaruvchi asarlar yomgʻir choqiruvchi "Sust xotin", "Tasadduq", shamolni chaqiruvchi "Koʻchirik"larni belgilaymiz. Ushbu marosimlarning afsun-sehrga moʻljallanishi koʻrinib turibdi. Ijrochilar tabiatga xayvonlarga duoxonlik yoʻli bilan murojat qilganlar.

Oʻzbek xalqida oʻziga xos xalq urf-odati va marosimlari xam koʻp asrlik tarix jarayonida rivojlangan. Surxandaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Fargʻona Toshkent va Xorazm maxalliy uslublaridagi kuy va qoʻshiqlardan musiqiy jixatlari farq qiladi. Xorazm xalqining oʻgʻil oʻylantirish toʻy marosimida bir necha oʻziga xos qismlari bor. Masalan: Sovchilikga borish, fotiha toʻyi, yotogʻ toʻyi, qiz uzotuv, kelin tushirish, kelin salom, nikoh, kelin barak kabi marosimlar bor. "Yotogʻ toʻyi" XX asrning 30-yillarigacha kelin, boʻlgʻusi qizning uyida "Kelin tushuruv" toʻyidan bir kun avval tashkil qilingan. (Bu toʻy marosimini hozirgi davrdagi "qiz yigʻin" yaʼni Xorazmda "xina yoqar" toʻy marosimi bilan umumiy oʻxshashliklari bor). "Yotoq toʻyi" deb ataladi. Ilgari vaqtlarda yotogʻ boʻlgan kechasi qiz ota-onasining uyida soʻngi mehmon boʻlgan kuni boʻlib unda qatnashgan kelin dugonalari qiz bilan birga toʻydan keyin yotib uxlaganlar shuning uchun xalq bu toʻyni yotogʻ toʻyi deb atab kelgan. Bu toʻy kechasi boʻlib kelin qizning dugonalari xotin-qiz qarindoshlar va balogʻatga yetmagan er bolalar qatnashgan. Toʻy davomida qizlar boʻlgʻusi kelin qizning sochlarini oʻrib qoshlariga oʻsma qoʻyib qoʻliga xinalar yopib pardozi berganlar.

Bundan tashqari qizga ertasi kiyadigan oyoq kiyimi, nikoh koylagi, doʻziyli doʻppisini kiygizib, yasanib-tusanib oʻtirishiga axamiyat berganlar. Toʻy ishtirokchilari dasturxonidagi nozu-neʼmatlardan istʼemol qilib boʻlgach, qayvoni yoki qatxudo xotin yor-yorlar aytishgan nasihatlar qilishgan. Xalfalar ham oʻz navbati bilan qoʻllariga piyola ushlab bir-biriga urib oʻzlariga usul berib yor-yor va qoʻshiqlar aytishgan:

Avval boshlab Xudoni, yod aytali yor-yor,
Paygʻambarlar ruhini shod aytali yor-yor.
Paygʻambarning qizini Ali olmish yor-yor,
Qiz olib xam qiz bermak shundan qolmish yor-yor.

Yor-yor qoʻshigʻi aytish marosimi oxirida qizga ota-ona uyidan kuyovnikiga borish, kiyovga haqiqiy yor boʻlib turmush qilishiga ijozat berishadi, bunda muborak toʻy qoʻshigʻi aytiladi. Nikoh toʻyi marosimlaridagi har-bir yoʻnalishda oʻziga xos kuy va qoʻshiqlar mavjud boʻlib, ular bir-biridan mazmunan farq qiladi. Bu qoʻshiqlar mazmuni voqeyalarga, shart-sharoitga bogʻliq tarzda aytiladi. Demak, umumtaʼlim maktablari oʻquvchilariga oʻzbek xalq ijodining tarixiy taraqqiyotini singdirish orqali biz oldimizga qoʻygan maqsadlarimizga erishamiz, yaʼni milliy musiqamizga boʻlgan munosabatlar. Xulosa qilib aytganda, maktab oʻqituvchilariga oʻzbek xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotini singdirishda va barkamol inson boʻlib voyaga yetishida badiiy estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqa sanʼatining ahamiyatini chuqur anglab, oshlarning ichki dunyosini boyitishga, maʼnaviy – axloqiy

fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishda o'zbek an'anadagi xalq ijodiga va uning ta'sir jihatlariga diqqat e'tibor bilan qarash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Nurmatov , N.Yuldasheva . O'zbek xalq musiqa ijodi .Toshkent.2007.
2. Davron Qodirov. An`anaviy qo'shiqchilik Toshkent «Iqtisod - moliya»2007
3. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish(maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaklar misolida).T.,2007.
4. Soipova D.Musiqiy –nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shahsini shakllantirish.p.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01),2006 y.